
Ijodiy uchrashuv

Rishton tuman 11-umumiy o`rta ta'lim maktabida 2021-yil 29-aprel kuni maktab ijodiy-madaniy masalalar targ`ibotchisi Dehqonova Muhtaramoy tomonidan "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" mavzusida ijodiy uchrashuv tashkil etildi.

Ijodiy uchrashuvda respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Rishton tuman bo`linmasi rahbari D. Dadaboyeva , "Rishton haqiqati" gazetasi bosh muharriri Z. Yigitaliyev, "Rishton haqiqati" gazetasi muharriri , shoir, tumandagi 13-maktab ijodiy-madaniy masalalar targ`ibotchisi T .Nosirov, 28-maktab MMIBDO` A. Haydarov ishtirok etdilar.

Uchrashuv tadbirini respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Rishton tuman bo`linmasi rahbari D.Dadaboyeva ochib berdi va o`quvchilarni kelajakda yuksak ma'naviyatli barkamol inson bo`lib yetishishga undadi. „Rishton haqiqati" gazetasi bosh muharriri Z. Yigitaliyev Rishton tumanida yashab ijod qilayotgan barcha yosh shoir va shoiralar haqida ma' lumot berdi.

Rishton haqiqati gazetasi muharriri, shoir , tumandagi 13- maktab ijodiy - madaniy masalalar targ'ibotchisi Tolib Nosirov maktab o'quvchilariga o'z ijodidan she'rlar o'qib berdi va kitoblari haqida qiziqarli malumot berdi .

Tadbir yakunida maktab ijodiy-madaniy masalalar targ`ibotchisi M. Dehqonova tadbirni yakunladi va mehmonlarga o'z minnatdorchiligini bildirdi .

Tadbir barchaga manzur bo'ldi.

2021-04-29 14:47:01